



SH. XOLMIRZAYEV: "QARIYA" HIKOYASIDA DIALEKTIZMLAR

Hayitova Aziza

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti

Amaliy filologiya yo'nalishi 3- bosqich talabasi

hayitova1122@gmail.com.Tel.: 93.163.72.04

To'raxonova Farangiz

3- bosqich talabasi

to'raxonova3356@gmail.com.Tel.:958446404

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15332047>

Annotatsiya. Ushbu maqola SH. Xolmirzayev "Qariya" hikoyasida dialektizmlarning qo'llanish o'rinlari ko'rsatilgan. Maqolada dialektizmlarning aholi turmush-tarzi, kommunikatsiya jarayonida muhim ahamiyatga ega ekanligi, ma'lum hududda faol dialektlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Dialektizm, areal dialektika, etnografizm, tahlil.

Annotation. This article is written by SH. Kholmirezayev's story "the old man" shows the places of application of dialecticisms. The article explains that dialecticisms are important in the process of population lifestyle, communication, active dialects are studied in a particular area.

Keywords: Dialectism, areal dialectics, ethnography, analysis.

Аннотация. Эта статья о SH. В повести Холмирзаева "старик" показаны места употребления диалектизмов. В статье исследуется значение диалектизмов в образе жизни населения, в процессе общения, изучаются активные диалекты на определенной территории.

Ключевые слова: диалектизм, ареальная диалектика, этнографизм, анализ.

Bugungi kun dolzarb muommolaridan biri bo'lgan dialektal so'zlarning so'zlashuv iste'molida keng muomala qilinmayotganligi, ularning yo'qolib ketish xavfi mavjudligi sheva so'zlarni yig'ish, ularning xalq hayotida muhimlik darajasi kabi masalalarni o'rganishni taqozo qiladi. O'zbek tili dialektal o'ziga xosligiga qadimgi urug' va qabilalar tilining turli territoriyada alohida-alohida mustaqil yashashlari muhim ahamiyat kasb etgan. Ijtimoiy hayot tarzi, territorial mustaqilligi, kasb- kori, etnografik xususiyatlari ulaming tilida aks etmay qolmas edi va bu holat tilda umumiylikni saqlab qolgan holda, boshqa territoriyada yashovchi o'zbeklar tilidan ko'pgina xususiyatlari bilan farqlanishiga olib kelgan, bu esa shevaning o'ziga xosligini keltirib chiqargan . Shuningdek, o'zbek yozuvchilarining asarlarida dialektizmlarning faol qo'llanilishi sheva leksikasini saqlab qolish, ishlatilish o'rni va avlodlarga yetkazish uchun ham foydalidir. B.I.Sinsius shevaga oid lug'at ma'lumotlarini qayta ishlashda mavzuviy



guruhlashning bir necha bosqichlarni taklif qiladi. A.G.Shayxulov esa shevalarni mavzulashtirib o'rganishdagi ahamiyatini ta'kidlash maqsadida, leksik-tematik tasniflash etnogenetik jihatdan boshqa turk tillari bilan bog'liq tegishli leksik tuzilmalarning semantik xususiyatlarini o'rganishga imkon berishini aytib o'tadi. Bu boradagi K.M.Musaev hamda R.Abdina fikrlarini ham hisobga olgan holda biz Boysun shevasiga xos so'zlarni quyidagicha tasniflashni taklif etamiz. Bular:

1. Fonetik dialektizmlar.
2. Leksik dialektizmlar.
3. Semantik dialektizmlar.
4. Grammatik dialektizmlar .

Yozuvchilar ijod mahsuli bo'lgan asarlardagi dialektizmlar hudud jihatidan areal dialektikani belgilab berishga xizmat qiladi. Areal dialektikada shevalar keng iste'molda bo'lgan so'zlar kesimida ularning ma'lum hudud vakillariga tegishlilik darajasini ko'rsatadi. Xalq turmush tarzi, milliyligini ifodalashda shevaning o'rni sezilarli bo'lib, ular adabiy tilning shakllanishida asosiy o'rinda turadi. Surxondaryo viloyati hududida yashovchi aholi qipchoq lahjasida so'zlashuvchilarning soni yuqori ko'rsatgichni ko'rsatadi. Surxondaryolik yozuvchi Sh. Xolmirzayev asarlarida Boysun hududida istiqomat qiluvchi aholining shevada so'zlashuv jarayonini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchining barcha asarlarida shevaga boy ekanligi, aholining turmush tarzida asosiy muloqot manbayi sheva bilan bog'liqligiga guvoh bo'lamiz. Xususan, sheva leksikasini tahlil qilishda Sh. Xolmirzayevning "Qariya" hikoyasida qo'llanilgan sheva so'zlarining adabiy variantini berish, uning semantikasi bilan bog'liq tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, hikoyadan olingan parchalardan sheva so'zlarining leksik dialektizmlari uchrash holatlari keltirilgan:

Kimki ushlagan bo'lsa yo ko'rgan bo'lsa, yo bog'lagan bo'lsa, o'ttiz so'm suyunchisi bor-ho-o!» deb baqira boshlaganda ovozi yetti mahalla nariga ketadi. Qo'ziboy chol ana shu ishi uchun mol egasidan cho'tal oladi.

Cho'tal – 2-ma'noda qo'llanilgan.

1. Qimor o'yinlarida yutgan tomondan olinadigan pul, ulush.
2. Ulush, hissa.

Ayniqsa, sahar paytida bozordan baralla ko'rinib turuvchi tog'lardan shundoq izg'irin esadiki, toqat qilib bo'lmaydi. Shunda beva xotin «jon olov, jon er» deganidek, sotuvchi o'rtokdarga kul paqirda keltirilgan lag'cha cho'g' juda ham asqatadi-da!

Paqir – chelak.



Lag'cha –lovullab turgan cho'g',o't.

Qo'ziboy chol — oriq, oyoqlari chilcho'pdek.

Chilcho'p –juda ozg'in, oriq.

Ular rayon markazidagi aholi singari og'ir, «bardoshli»mas. Keltirgan mollarini donalab sotib o'tirgandan ko'ra uni ko'tarasiga sotib, o'zlariga kerakli narsalarni xarid qilib qaytshpga shoshadilar: tog' uzoq, kechga qolmay qishloqlariga yetib olishlari kerak.

Ko'tarasiga sotmoq –hammasini, barchasini sotmoq.

Bir eshonga murid tushib, yetti yil uning izidan yurgan.

Murid tushmoq –shogird tushmoq

Mezonlar ko'p — simyog'och simlarida, daraxt shoxlarida, tom bo'g'otidan chiqib turgan yog'och uchlarida.

Bo'g'ot –Qamish solib yopilgan tomning devordan tashqariga chiqib turgan qismi.

Biroq qaytib kelgan kuni kimsasiz bozorga kirib huvillab yotgan rastalarni ichki bir mamnuniyat bilan aylanib ko'rarkan, bozor odog'idagi kichkina darcha qattiq itarilib, ochilib ketdi.

Odog` - pastki joy,pastki qism.

— Bahay? Tinchlikmi? — so'radi bozor ishchisi.

Bahay- Nima gap, qalay; tinchlikmi; yaxshi.

Chakki ish bo'pti.

Chakki – 1-ma`noda qo'llanilgan.

1. Yomon; qoniqarsiz.

Bu yerda uning turmushi chakki bo'lmadi. S. Anorboyev, Oqsoy

— G'o'zalarimiz chakki emas, — deydi polvon. A. Qodiriy, Obid ketmon

— Bashoratdan boshqa hammamiz umuman chakki baho olmadik, — dedi Zaynab. Sharq yulduzi

2. Nojo'ya, noo'rin.

Chakki yursang, dakki yersan. Maqol

— Chakki gap aytgan bo'lsam, uzr, otaxon, — yigit xijolatda qolgan edi. Guldasta

3. Bekor, behuda.

Asli bugun ham chakki ovora bo'lgansiz. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon

Qo'ziboy chol choyxonaga kirdi. Kimsasiz, zax xonaga o'tib, bitta ko'kchoy buyurdi-da, chorpoyaga chiqib chordana qurdi. Do'ppisi ustidan qiyiqcha o'ragan G'oziboy choy olib kelgan edi, uni ro'parasiga o'tqazib:



Chorpoya – Ochiq havoda o'tirishga, yotishga mo'ljallangan, to'rt oyoqli va panjarali katta keng yog'och karavot, so'ri.

Chordana qurmoq – Oyoqlarni tizzadan bukib va tizzadan pastini bir-biriga chalkashtirib bosib o'tirmoq.

Qiyiq – Odatda belga bog'lash uchun atrofiga gul tikilgan to'rtburchak mato; belbog', qiyiqcha. Atlas qiyiq. Shohi qiyiq.

— E, qizishmang, inim, — dedi Qo'ziboy chol beparvolik bilan.

Inim – 1. ayn. Uka.

Yig'im-terim vaqtida bir falokat yuz berib, Hasan o'z inilari va ularning bolalaridan ajraldi. S. Ayniy, Qullar

2. (1-shaxs birlik egalik shaklida — inim).

To'y degani bamaslahat bo'ladi, o'lim tuyqusdan keladi! Buning farqi katta!.. Attang!

Tuyqusdan kelmoq – Bexosdan, qo'qqisdan, kutilmaganda, birdan kelmoq.

E, bu Shoymardon Qudrat deganingiz toza zo'r ekan! Desangiz, paykalda paxta oppoq bo'lib, shu... charv moydek bo'lib oqib yotibdi!

Paykal – Marza, ariq, yo'l kabilar bilan ajratilgan katta ekin maydoni; pol, chek.

Kechqurun uyga bordi. Qo'shnining echkilari tomorqaga kirgan ekan, ularni haydab kemptikdan oshirdi-da, o'ylab turib bostirmaga chiqdi:

Kemtik – 1- ma'noda qo'llanilgan.

1. Predmetning uchgan, singan, kertilgan, buzilgan, nuragan joyi.

2. ko'chma Yetishmaydigan, to'lmay qolgan joy; yetishmovchilik, kamchilik, nuqson.

Bostirma – 1- ma'noda qo'llanilgan.

To'rt tomoni yoki ikki yoni va old tomoni ochiq, usti yengilgina yopilgan qurilma, (usti yopiq uzun) yo'lak.

Taomni ustidan mahkam bekitib, biror og'ir narsa bostirib qo'yib pishirish usuli va shunday usulda pishirilgan taom.

Soyning tik qirg'og'ida qadimgi qo'rg'on vayronalari qaqqayib turar, uning vodiya qarab ochilgan shinaklarini kaptarlar in qilgandi.

Shinak – 1- ma'noda qo'llanilgan.

1. esk. 1 Shahar, qal'a, qo'rg'on kabilar devoridan dushmanni kuzatish va otish uchun qilingan maxsus tuynukcha.

2. Dushmanni kuzatish va undan saqlanish mumkin bo'lgan pana joy.

Andak tobim aynib yotib qoldim deng... Shamol tegdimi, bilolmadim. Xo'sh?

Andak – 1- ma'noda qo'llanilgan.



1. Ozgina vaqt, birpas.
2. Birmuncha, bir qadar.
3. Uncha katta yoki ko'p emas; bir oz, qittak .

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dialektizmlarning faol qo'llanish jarayoni asar syujetini real tasvirlarlashga, haqiqiy insonlar turmush-tarzini ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Hikoyada berilgan dialektizmlar yozuvchi ijtimoiy hayotida faol qo'llagan so'zlari, Boysun hududida yashovchi aholining so'zlashuv jarayonini, madaniyatini bevosita kitobxonlarga ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Sheva so'zlarning omonimlik xususiyati bo'lib, ularning ma'nosini bilish uchun kontekstda kelgan ma'nosiga qarab anglashiladi. Shevalarning adabiy holatga o'tishi, turli shevalardan muqobil variantini tanlash, uning sayqallangan variantga keltirish, shuningdek, so'zlar etimologiyasi bevosita sheva leksikasi bilan bog'liqdir. Dialektizmlarning keng qo'llanishi sheva leksikasining yo'qolib ketish xavfining oldini olish uchun hamda boshqa sheva vakillari, til sohiblarining shevani o'rganishi, so'z jilosidan bahramand bo'lishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Ashirboyev "O'zbek dialektologiyasi" Toshkent-2013
2. S. Rahimov: "O'zbek tili Surxondaryo shevalari (Fonetika, leksika) Toshkent 1985.
- 3.М. Холова: Ўзбек миллий шевалари корпуси тадқиқи (Бойсун тумани "ж"ловчи шевалари мисолида) монография Термиз – 2022
4. SH. Xolmirzayev: "Qariya" hikoya
5. Izoh.uz